



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 12-oktabr, payshanba,  
120 (23.841)-son

**KUN  
HIKMATI**

Baxt so'rab  
yoki  
tilab  
olinmaydi

# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqq boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews\_uz



https://twitter.com/zarnews\_uz

## Xalqaro forumga hozirlik ko'rilmoqda

Shu yilning 13-17-noyabr kunlari Samarqand shahrida BMTning Cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish konvensiya (CRIC 21)si ijrosini ko'rib chiqish qo'mitasining 21-sessiyasi bo'lib o'tadi.



Samarqand shahrida bo'lib turgan BMT bosh kotibi o'rinbosari, BMTning Cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish konvensiyasi ijrochi kotibi Ibrohim Tiav hamda O'zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abdurahimovlar ishtirokida mazkur nufuzli tadbirni o'tkazish yuzasidan hamkorlik bitimi imzolandi.

— To'g'ri, keyingi yillarda yurtimizda tabiatni asrashga qaratilgan keng qamrovli loyihalar amalga oshirilmoqda, - deydi Aziz Abdurahimov. — Biroq biz erishilgan natijalarga emas, qilinishi kerak bo'lgan ishlarga ko'proq e'tibor berishimiz kerak. Oldimizda hali chang bo'ronlari, yerlarning cho'llanishi, yer osti suvlarining pasayishi singari dolzarb masalalar turibdi. Anjundan ko'zlangan asosiy maqsad ularni hal qilish borasidagi ilg'or tajribalarni yurtimizga olib kirishdir. Bundan tashqari, biz dunyoning yetakchi mutaxassislari, ilmiy tadqiqot institutlari bilan ham to'g'ridan to'g'ri hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishga erishamiz. Bu esa bizga yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Ma'lumot uchun, O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida Konvensiyaga a'zo bo'lgan birinchi davlat hisoblanadi. Bugun unga a'zo davlatlar soni 196 tani tashkil etadi. Samarqand shahrida bo'ladi-gan CRIC 21 sessiyasi Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida o'tkaziladigan cho'llanishga qarshi kurashish sohasidagi ilk global tadbir hisoblanadi. Unda ming nafardan ziyod mahalliy va xalqaro ekspertning ishtiroki kutilmoqda.

Mamlakatimizda joriy yilning 1-noyabridan boshlab, elektr energiyasidan ortiqcha foydalanishga cheklolvar joriy qilinishi to'g'risidagi xabarlar tarqalgach, ijtimoiy tarmoqlarda turli xil gap-so'zlar, tushunmovchiliklar kelib chiqdi. Xo'sh, bu cheklolvarning tartibi qanday bo'ladi?

— Vahima qilishning hojati yo'q, elektr energiyasi uchun tariflar oshmayapti, faqatgina ko'p iste'mol qiluvchilar uchun tabaqalashtirilgan narxlar joriy qilinaypti, xolos, - deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati Samarqand hududiy filiali boshlig'i Umid Nazarov. — Elektrning 1000 kW gacha bo'lgan narxlaril ilgari ko'zda tutilganidek, 295 so'mligicha qolmoqda. Ya'ni, 1001 kW dan 5000 kW soatgacha iste'mol uchun belgilangan tarifga nisbatan 2 barobar (590 so'm), 5001 kW dan 10000 kW soatgacha iste'mol uchun

Samarqand shahrida Xalqaro notarial hamkorlik komissiyasining navbatdagi konferensiyasi o'tkazildi. Ikki kun davom etgan nufuzli tadbirda Argentina, Avstriya, Vengriya, Germaniya, Indoneziya, Eron singari 33 davlatdan 150 nafardan ziyod delegatsiya a'zosi qatnashdi.

Xalqaro tadbirning ochilishida O'zbekiston adliya vaziri Akbar Toshqulov, O'zbekiston Respublikasi Notarial palatasi raisi Dilshod Ashurov va boshqalar so'zga chiqib, mamlakatimiz notariat sohasida amalga oshirilgan islohotlar va kelgusidagi rejalar haqida to'xtalishdi. Xalqaro notariuslar ittifoqi (XNI) ning xalqaro aloqalar bo'yicha komissiyasi prezidenti Richard Bok hamda ittifoqning faxriy prezidenti Kristina Armella xonimga O'zbekiston Notarial palatasi tomonidan ta'sis etilgan "Notariat sohasiga qo'shgan hisssasi uchun" ko'krak nishoni topshirildi.

— O'zbekiston tomonining konferensiya tashkil etish tashabbusini yuqori baholayman, - deydi Senegal Respublikasi notariuslari vakili, XNI faxriy prezidenti Daniyel Sedar Serxor. — Darhaqiqat, soha bo'yicha gaplashib olishimiz kerak bo'lgan masalalar ko'p. Shulardan biri insonlarga xavf soluvchi harakatlarni, xususan, terrorizmi moliyalashtirishga qaratilgan harakatlarni to'xtatishda notariuslar faolligini oshirishdir. Buning uchun biz hamjihat bo'lishimiz, hushyorlikni oshirishimiz kerak.

Tadbirda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizm va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish hamda

## Notarial hamkorlik istiqbollari Samarqandda muhokama qilindi



notariatlar faoliyatini raqamlashtirish masalalari yuzasidan ma'ruzalar tinglandi.

— Sohani raqamlashtirish ham bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi, - deydi Adliya vazirligi boshqarma boshlig'i Dilmurod Umarov. — Masalan, o'tgan davrda yurtimizda notarial harakatl uchun talab qilinadigan hujjatlar soni 83 foizga qisqartirilgan. Lekin shu bilan cheklanib bo'lmaydi. Sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali masofadan amalga oshiriladigan notarial harakatl doirasini kengaytirish, shuningdek, fuqarolarimizning xorijda turib ham notariuslar xizmatidan bemaol foy-

dalanishini ta'minlashimiz kerak. Anjumanda mazkur jarayonni jadallashtirish masalalari muhokama qilindi.

Konferensiyada O'zbekiston Notarial palatasi raisi Dilshod Ashurov Turkiya notariuslari ittifoqi prezidenti Emine Chaglayan, Vengriya Notarial palatasi prezidenti Adam Tot hamda Mo'g'uliston notarial palatasi prezidenti Bayandjangan Chandrabala bilan o'zaro hamkorlik memorandumlarni imzoladi.

Tadbir dasturiga muvofiq, ishtirokchilar Samarqandning diqqatga sazovor joylarida bo'lib, boy madaniy meros va qadriyatlarimiz bilan ham tanishtirildi.

## Paxta terib, oilamiz daromadini oshiryapmiz

Ayni kunlarda paxtakorlarimiz yetishtirilgan hosilni yomg'irli kunlarga qoldirmasdan yig'ishtirib olish harakatida. Ular 70 ming 414 gektar maydonda yetishtirilgan g'o'zadan 265 ming tonna hosil yig'ishtirib olishni rejalashtirishgan. 11-oktabr holatiga ko'ra, paxtakorlarimiz 236,7 ming tonna, ya'ni ko'zlangan marradagi 89 foiz hosilni terib oldi.

Birgina Payariq tumanidagi 438 fermer xo'jaligi joriy yilda 10 ming 459 gektar maydonda chigit qadab, 37 ming 711 tonna paxta hosili yetishtirishni maqsad qilishgan. Tumanda yig'im-terim ishlari uchun 328 ta terim otryadi tuzildi.

Dalalarda yetishtirilgan hosilni yig'ishtirish ishlarida fermer xo'jaligi a'zolari bilan birga band bo'lmagan aholi vakillari, ijtimoiy hi-moyaga muhtoj xotin-qizlardan iborat 17,3 ming nafar terimchi qatnashmoqda.

— Doimiy ishga ega emasman, - deydi tumanning Bahrin mahallasida yashovchi Obid Ernazarov. — Oilamizga daromad bo'lishi uchun terim ishlarida turmush o'rtog'im bilan qatnashyapmiz. Mavsum boshida kuniga 300-320 kilogramgacha paxta terdik, hozir ham terim avjida. Paxta terib, oilamiz uchun yaxshigina daromadga ega bo'lyapmiz, terim pullari ham o'z vaqtida berib borilyapti.



Ma'lumot o'rnida, tumanda o'tgan yilgi mavsumda hosildorlik 32,4 sentnerni tashkil etgan bo'lsa, joriy mavsumda 33,5 sentnerdan oshishi kutilmoqda. Shu kungacha tuman paxtakorlari 35 ming tonnadan ortiq "oq oltin" yig'ishtirib oldilar.

**Baxtiyor MUSTANOV.**

O'nga yaqin hududda shamol elektr stansiyalari quriladi. Unumli foydalanilmayotgan qir-adirlarda ming gektarlik olmozor va dunyodagi eng katta lavanda plantatsiyasi tashkil etiladi. Far-matsevtika va parfumeriya mahsulotlari ishlab chiqariladi. Qo'shrabotda endi uzum voyish usulida, issiqxonalarda ham yetishtiriladi. Tuman hokimi Dilshod Shakarboyev bilan shu va shu kabi mavzularda suhbat qurdik.

## Qo'shrabotda MING GEKTARLIK OLMAZOR yaratiladi

— Tumanda birinchi rahbar vazifasida ish boshlaganin-gizga qariyb bir yarim yil bo'ldi. O'tgan davr mo-baynida tumanda qan-day o'zgarishlar bo'ldi? Aholi asosan hokimga qaysi masalalarda murojaat qilyapti?

— Viloyat hokim-ligida ishlab yurgan paytlarimda ham bu tumanga ko'p kelganman. Ammo tan olib aytish kerak, e'tiborimiz haminqadar bo'lgan. Bu yerda hokim vazifasida faoliyatimni boshlaganimdan beri mavjud 45 ta mahallaning barchasida bo'lib, aholining kayfiyati, hududlardagi imkoniyatlarni o'rgan-dim. Odamlarning aksariyati ishsizlik muammosi bilan muro-jaat qildi. Unumli foydalanilmayotgan gektarlab maydonlarimiz eng katta boyligimiz. 980 nafar fuqaroga dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun 478 gektar yer maydoni ajratib berildi. O'tgan yili Chimmos mahallasida 150 kishi bilan ish boshla-gan tikuvchilik fabrikasida bugun 450 nafar xotin-qiz ish bilan band. Tumanning yana to'rt hududida ana shunday fabrika tashkil etish rejalashtirildi. Shuningdek, o'tgan yili 4,5 million dollarlik loyiha — parrandachilik korxonasi ishga tushirildi. Nati-jada har oyda bir millionta nasli jo'ja yetishtirilyapti. Jo'jalar 120 kun boqilib, aholiga topshirilyapti.

— Bir paytlar Qo'shrabot aholisining aksariyat qismi asosan chorvachilik bilan shug'ullanib, mo'may daromad olgan. Bugun-chi? — To'g'ri, qo'shrabotliklar uzumchilik va chorvachilikda yaxshigina tajriba to'plagan. Hozir ham bu ishlar davom etyapti. Keyingi paytda suv muammosi o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaypti, ammo bugun mehnat qilaman degan odamga imkoniyat bor. Imtiyozli kredit evaziga ish boshlaganlar talaygina. Masalan, Yuqori Jo'sh mahallasida bir ishsiz fuqaro bundan ikki yil ilgari 10 bosh qo'yni imtiyozli kredit evaziga olgan va shu vaqt davomida ularning sonini 32 taga yetkazgan. U bilan suhbatlashganimda, bu sof foydasiz ekanligi, kreditni allaqachon to'lab bo'lganligini aytdi. Ayrimlar borki, olingan kreditlardan maqsadsiz foydalanyapti. Na daromad qilyapti, na kreditni qaytaryapti. Qo'ylarni sotib yuborib, kreditni qaytarolmayot-ganligini aytib, murojaat qilayotganlar ham bor.



## Bugunning gapi

olishning avtomatlashtirilgan tizimi — ASKUE doirasida iste'molchilarga ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan qurilmalarning minimal quvvatidan hamda joylashgan hududidan kelib chiqib, hisoblagich orqali 10 - 15 kW quvvat doirasida cheklov kiritiladi. Bu degani, 10 kW cheklov kiritilgan hududdagi xonadonlar bir vaqtning o'zida 1500 vattlik uchta elektr pechka, 2000 vattlik uchta konditsionerni tarmoqqa ulay olmaydi. Chunki quvvat 10500 W (10,5 kW) bo'lib ketmoqda. Bu holda ASKUE hisoblagich xonadonni tokdan uzib, bloklab qo'yadi.

Bunday chora eskirgan va ortiqcha yuklama bilan ishlayotgan elektr tarmoqlari va transformator punktlari joylashgan ma'lum bir hududlarda iste'molchilarning uzoq vaqt elektr ta'minotidan uzilib qolishining oldini olish zarurati yuzasidan qo'llaniladi.

Bu o'zgarishlar aholida tejamkorlik kayfiyatini kuchaytirish bilan birga "yashirin iqtisodiyot"ga barham berish uchun amalga oshirilmoqda.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**

## Elektr energiyasi tizimidagi o'zgarishlar

aholini tejamkorlikka o'rgatadi

3 barobar (885 so'm) va 10000 kW dan yuqori iste'mol uchun 4 barobar (1180 so'm) o'suvchi koefitsiyent qo'llanilgan holda haq undiriladi.

2019-yildan shu bugungi kunga qadar, ya'ni 4 yil davomida ulgurji iste'molchilar uchun (budjet tashki-lotlari va ayrim yirik iste'molchilardan tashqari) tariflar oshirilgani yo'q. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-sen-tabrdagi "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risi-da"gi qaroriga asosan, joriy yilning 1-oktabridan faqatgina ulgurji iste'molchilar uchun tariflar oshdi. Aholi uchun esa eski tarif, ya'ni 1 kW uchun 295 so'm to'lov saqlanib qolinmoqda. Shuningdek, ovqat tayyorlash

uchun markazlashgan holda elektr plitalari bilan jihozlangan ko'p kvartirali uy-joylar va yotoqxonalarda yashay-digan aholi, ya'ni maishiy iste'molchi-lar uchun ham tariflar (147,5 so'm) o'zgaragan. Yangi tariflar joriy etilishi bilan ulgurji iste'molchilarga elektr energiyasini yetkazib berish 50 foiz oldindan haq to'lash asosida amal-ga oshiriladi. Oldindan haq to'lama-gan iste'molchilarga nisbatan elektr tarmoqlaridan to'liq uzish choralari ko'riladi.

— Elektr energiyasidan oqilona foy-dalanish maqsadida maishiy iste'mol-chilarning elektr energiyasi iste'moli yuklama orqali chegaralanadi, - deydi Umid Nazarov. — Bunda elektr ener-giyasini nazorat qilish va hisobga

Joriy yilning 11-13-oktabr kunlari O'zbekiston ilk bor Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari kengashining oltinchi Yushlar Kengashi yig'ilishiga mezbonlik qilmoqda. Samarqand shahrida o'tkaziladigan tadbirda 36 davlatdan 500 dan ortiq faol yoshlar, yosh tadqiqotchilar, olimlar, ijodkorlar, ekologlar, ijodiy sanoat vakillari va volontyorlar ishtirok etishi kutilmoqda.

Yig'ilishda tashkilot Yushlar Kengashining 2023-yilgi faoliyati, 2024-yil uchun rejalari, yoshlar o'rtasida terrorizm va radikalashuvning oldini olish bo'yicha xorijiy tajribalar, ta'lim, ekologiya va kreativ sanoat sohasidagi loyihalar taqdimoti, shuningdek, "Osiyo yosh liderlari forumi", "I O'zbekiston-Ozarbayjon yoshlar forumi", "II O'zbekiston-Qozog'iston yoshlar kongressi", "III O'zbekiston-Rossiya yoshlar forumi" hamda "Avlodlar muloqoti" tashkil etiladi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Qo'shrabotda

MING GEKTARLIK OLMAZOR yaratiladi

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

- Bundan 3 yil ilgari Jo'sh qishlog'ida gi katta maydonda lavanda o'simligi yetishtirila boshlandi...

- Turkiyalik mutaxassislar o'sha hudud tuprog'ini laboratoriya tahlilidan o'tkazib, aynan lavanda yetishtirish uchun eng unumdor tuproq Qo'shrabotda ekanligini aniqlagan. Hozirgi kunda 300 gektar maydonda bu o'simlik parvarishlanayapti va 300 nafar ishshizning bandligi ta'minlangan. 2024-yilda yana 500 gektar maydonda lavanda ekish rejalashtirilgan. Umuman, tadbirkorlarimiz Qo'shrabotda dunyodagi eng katta lavanda plantatsiyasini yaratishni maqsad qilgan. Shuningdek, kelgusi yil boshida qayta ishlash korxonasi ishga tushadi. Bu yerda farmatsevtika va parfumeriya mahsulotlari ishlab chiqarilishi ko'zda tutilaydi. Qolaversa, hududda dam olish maskani ham barpo etiladi.

- Qo'shrabotliklarni qiynaydigan eng katta muammolardan biri - bu suv masalasi.

- Ha, shunday. Tumanda suvli yerning o'zi yo'q. Ekin maydonlarini sug'orish uchun asosan yer osti suvidan foydalaniladi. Afsuski, bugungi kunga kelib, yer osti suvi sathi ham pasayib ketayapti. Bu avvalo, qurg'oqchilik tufayli, deyshimiz mumkin. Ammo yana bir asosiy sababi, artezian quduqlari orqali olinayotgan suvdan unumli foydalanilmayotgani. Shuning uchun ham keyingi bir yil ichida yer osti suv sathi yana bir necha metrga pastladi. Odamlarimiz juda ko'p suvni isrof qilyapti. Ayrim dehqonlar ekinlarni tomchilatish usuli orqali sug'oraypti, ammo aholining aksariyat qismi suvdan xo'jasizlaricha foydalanyapti. Biz faqat bugunni o'ylamasligimiz kerak. Buning uchun zarur choralarini ko'rish payti keldi. Bugungi kunda "Ochabuloq" suv omborini tashkil etish loyihasi ustida ish olib boryapmiz va buning natijasida sug'orilmaydigan 2 ming gektar yer maydonini o'zlashtirish bo'yicha takliflar bildirilgan. Ushbu loyiha amalga oshadigan bo'lsa, tog'lardan keladigan sel suvlari to'planadi va qisman bo'lsa-da, suv muammosiga yechim topgan bo'lamiz. Katta emas, shu kabi kichik-kichik bir necha suv omborlarini tashkil qilsak, yer osti suv sathini ham me'yorida saqlab qolishga erishgan bo'lardik.

- Yaqinda Xitoy davlatida bo'lib qaytdingiz. Safar taassurotlari va samaralari haqida ham to'xtalsangiz.

- Shensi provinsiyasining kambag'allikni qisqartirish, sanoatni rivojlantirish borasidagi tajribasini o'rganish maqsadida, Qo'shrabot va Pariyiq tumanlari rahbarlari hamda tadbirkorlari 19-23-sentabr kunlari Xitoyda bo'ldik. Safardan juda katta taassurotlar bilan qaytdik. Avvalo, shunga amin bo'ldikki, Qo'shrabot viloyat markazidan 100 kilometr uzoqlikda joylashganligi uchun tadbirkorlikni rivojlantirish qiyin masala, deyilishi bahona ekan. Shensi provinsiyasining markazdan 200-300 kilometr olisda joylashgan hududlarida juda katta korxonalar ishlab turibdi. Biz bir necha loyihalarni amalga oshirish bo'yicha xitoylik tadbirkorlar bilan shartnomalar imzoladik. Jumladan, qir-adirlarni zinasimon shakliga keltirib, dehqonchilikni yo'lga qo'yishni rejalashtiryapmiz. Hududlarda elektr energiyasi olish uchun quyosh panellari o'rnatiladi. Suvdan ham oqilona foydalaniladi. Ming gektar maydonda olmazorlar tashkil etiladi. Safar davomida e'tiborimni tortgan yana bir jihati, uzum va anjirlar "aqlli" issiqxonalarda yetishtirilgan ekan. Masalan, toklarni sug'orish, ularga ozuqa berish, haroratni me'yorida saqlash kompyuter texnologiyalari orqali bajariladi. Qo'l mehnatidan kam foydalaniladi. Tumanimizda ham uzumni issiqxonalarda, shuningdek, voyish usulida yetishtirish rejalashtirilyapti.



- Bu bilan shu paytgacha qo'shrabotliklar uzum yetishtirishda duch kelayotgan ko'pgina muammolarga barham berilar ekan-da?

- Albatta, shu yil bahorda kelgan sovuq oqim tufayli qo'shrabotlik dehqonlarning 70 foizi uzumdan keladigan bir yillik daromaddan quruq qoldi. Achinarlisi, ular orasida faqat shu tomorqasi orqali ro'zg'or tebratayotganlari ham talaygina. Issiqxonalarda uzum yetishtirish yo'lga qo'yilsa, shu kabi ko'pgina muammolarga chek qo'yilardi. Xitoylik tadbirkorlar ko'magi bilan zamonaviy usullardan foydalanib, tomorqalarda hamda katta maydonlarda uzum yetishtirish, uni quritish va qayta ishlash, qadoqlab xorijga eksport qilish bo'yicha ham loyihalarni amalga oshirmoqchimiz. Shuningdek, echki boqish, uning sutini, go'shtini, hatto shoxi va tuyoqlarini ham qayta ishlashni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Tumaning 10 ga yaqin hududida shamol elektr stansiyalari qurilishi bo'yicha ham shartnomalar imzoladik. Maqsadimiz Qo'shrabotning o'ziga yarasha yo'lini belgilab olib, qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarni jplantirish orqali aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirishga erishishdir.

To'iqin SIDDIQOV suhbatlashdi.

SANGARDAK mo'jizasi

Yurtimizda inson manfaatlarini ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish, salomatligini tiklash va dam olish uchun keng imkoniyatlar yaratish, umuman, hayotdan rozi bo'lib yashashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ayniqsa, nu-fuzi va salohiyati kun sayin oshib borayotgan kasaba uyushmalarining roli beqiyos bo'layotir. Xususan, keyingi yillarda federatsiya tomonidan yangi sog'lomlashtirish va dam olish maskanlari, bolalar oromgoxlari barpo etilmoqda, tizimdagi sanatoriylar moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda.

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi Sangardak mahallasida, yurtimizning eng baland nuqtalaridan biri bo'lgan Hisor tog' tizmasi yonbag'rida qurilib, ishga tushirilgan «Sangardak» sanatoriysi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Sentabr oyining boshlarida qo'l telefonimga ustma-ust qo'ng'iroq bo'lib qoldi.

- Assalomu alaykum, siz urgultik birinchi darajali mehnat faxriysi Matlab akamisiz? - degan notanish ovoz eshitildi.

- Valaykum assalom, ha, bu menman, - deya javob qaytardim.

- Samarqand viloyati kasaba uyushmalari kengashidan qo'ng'iroq qilyapmiz. 16-sentabr kuni Surxondaryo viloyatida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga qarashli yangi sanatoriyning tantanali ochilish marosimi bo'ladi. Sizni mehnat faxriysi sifatida ushbu tadbirda ishtirok etishga taklif etamiz. Maxsus yo'lovchi poyezdga safar uchun chipta buyurtma berilgan. Yangi sihatgohning birinchi dam oluvchilari bo'lasizlar. 15-sentabr kuni kech soat 20:00 dan kechikmay, Samarqand temiryo'l vokzaliga yetib keling, kutamiz, - deydiki.

O'zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi Samarqand viloyati, kengashi raisi Normurod Rajabov va men aytilgan muddatda Samarqand temiryo'l vokzaliga yetib bordik. Bizni u yerda O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Samarqand viloyati kengashi raisi Suhrob Rafiqov qarshi oldi va bizlarga hamrohlik qilajagini aytdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, perronga "Toshkent-Denov-Toshkent" maxsus yo'lovchi poyezdi kelib to'xtadi. Nima uchun "maxsus" poyezd ekanligini vagonlarga chiqqan zahotimiz bilib oldik. Yo'laklarga yangi gilam poyandozlar to'shalgan, deraza oynalariga 2 xil rangda harir pardalar tortilgan, o'rindiqlardagi ko'rpachalar yap-yangi, vagon xizmatchilari xizmatga bel bog'lab turishibdi. Bunaqasini ilgari ko'rmagan edik.

Poyezdimiz harakatlanishi bilan hammamizga kechki ovqat tortildi. Poyezdimiz shitob bilan olg'a borardi. Biroz suhbatlashib, keyin mizg'ib oldik. Alplar yurtining Qo'rg'ontepa, Sho'rchi tumanlari hududidan o'tayotganimizda tong otdi. Manzilga yetar-yetmasimizdan ertalabki nonushta ulashildi. Soat 8:30 da Denov temiryo'l vokzaliga yetib bordik.

Temiryo'l bekatida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi rahbariyati, mas'ul xodimlari, hukumat va jamoat tashkilotlari vakillari, faxriylar, elimiz sevgan shoiru adiblar, san'atkorlardan iborat delegatsiyamizni surxondaryoliklar karnay-surnay sadolari ostida kutib olishdi. So'ngra zamonaviy avtobuslarga chiqib, Sariosiyo tumani sari yo'l oldik. Tekislikda, chamasini 15 kilometr yo'l bosganimizdan so'ng avtobuslarimiz baland tog'lar oralab ketgan tor, ammo kaftdek tekis asfalt yo'lda harakatlanishni davom ettirdi. 25-30 kilometr yurganimizdan so'ng sharqirab oqayotgan Sangardak soyining chap sohilida 150-200 metr balandlikda olmosdek yaraqlagan osmono'par bino ko'zga tashlandi. Bu - zamonaviy usulda qurilgan "Sangardak" sanatoriysi binosi edi.

Sangardakning ma'nosi nima? U nimani anglatadi? Shu yerlik aholining aytishicha, "Sangardak" fors-tojikcha so'z bo'lib, "aylanasi tog'" degan ma'noni anglatarkan. Bu qishloq aholisining yarmini o'zbeklar va teng yarmini tojiklar tashkil etarkan. Ular bir oila farzandlaridek ahil-inoq yashaydilar.

Sanatoriya tog'lar bag'rida qurilgan bo'lib, baland qoyalar bilan deyarli tenglashib turibdi. Avtobusdan tushishimiz bilan bizlarni Surxon elining bebaho san'at darg'alari bo'lgan baxshilar, boysunlik taniqli san'atkorlar kuy-qo'shiqlar, jozibali raqslar bilan qarshi olishdi. Shundan so'ng yangi sihatgohning tantanali ochilish marosimiga to'plandik. Tadbirni O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi, senator Qudratillo Rafiqov ochib berarkan, bu inshoot Prezidentimizning

xalqchil insonparvarlik g'oyasi - "Inson qadri uchun!" tamoyilining amaliy ifodasi bo'lganligini alohida ta'kidladi.

- Chunki hurmatli yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yilda Surxondaryoga tashrifi chog'ida O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasiga Sariosiyo tumanidagi dengiz sathidan 1500 metr balandlikda joylashgan va "Markaziy Osiyo Niagarasi" nomini olgan Sangardak sharsharasi yaqinida jahon standartlariga javob beradigan zamonaviy sanatoriya qurish tashabbusini bildirgan edilar, - dedi Q.Rafiqov. - Bu binoni qurishga azmi qaror qilgan va qisqa muddatlarda qurib bitkazgan federatsiyamizning kapital qurilish boshqarmasiga qarashli "Kasaba loyiha" hamda "Kasaba qurilish" korxonalari quruvchilariga tasanno. Bunday yirik va salobatli binoni qurishning o'zi bo'lmaydi, albatta. Bu - haqiqiy mo'jiza.

Tadbirda so'zga chiqqan boshqalar ham tog'lar bilan bo'yashib turgan bu inshoot Sangardakning haqiqiy mo'jizasi bo'lganligini ta'kidladilar. Bu yerga tashrif buyurgan mehmonlarning e'tirofu samimiy dil so'zlaridan so'ng "Sangardak sanatoriysi" MCHJ direktoriga sihatgohning ramziy kaliti va yengil avtomobil topshirildi. So'ngra eshik oldidagi alvon lenta qirilib, to'planganlar yangi sanatoriya bilan yaqindan tanishdilar.

Poytaxtdan kelgan mehmonlar qatorida hamkasbimiz, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Abdusaid Ko'chimov ham bor edi va u biz joylashgan xonani kirib ko'rdi.

- O'h-hu, juda qulay va ko'rkam ekan-ku bu xonalar, - dedi Abdusaid aka. - Besh yulduzli mehmonxonalaridan qolishmaydi. Bu O'zbekistonning qudrati, yurtimizda inson qadrlining qanchalik balandligi timsoli. Yaxshi bilasizlar, ilgari, sobiq ittifoq davrida Qrim, Sevastopol singari kurort shaharlarda O'zbekistonning sanatoriylari bo'lardi. Lekin bu sanatoriylarga ham yo'llanma olish oson emas.

Asosan, rahbarlar borardi. Ammo o'sha mashhur joylarda ham bunday sharoit yo'q edi. Mana, endi qarang, yurtimizning olib bir hududida, tog'lar orasida shunday ko'rkam dam olish maskani bunyod etilibdi. Havosining musaffoligi, tabiatining go'zalligini ta'riflashga til o'z. Chindan ham yurtimiz jannatmonand. Ilohim, ko'z tegmasin!

Yurtimizning turli hududlaridan kelgan 200 nafardan ortiq faxriylar, ijodkorlar va faollar 10 kun yangi sihatgohning ilk dam oluvchilari sifatida Sangardak mo'jizidan bahramand bo'ldik.

Dam olish va davolanish maskani tashxislash va davolanishga xizmat qiluvchi eng so'nggi ruzumdagi 27 turdagi zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, yuqori sifatli qattiq va yumshoq mebellar bilan ta'minlangan. Dam oluvchilar fizioterapiya va suv, balchiq, parafin bilan davolash bo'limlari, tuz g'ori, jismoniy tarbiya, yopiq suzish havzasi, turk hammomi xizmatlaridan foydalanadilar.

Sanatoriya tog' iqlimi va tabiatining shifobaxsh xususiyatlariga ko'ra yuqori nafas yo'llari, allergiya, astma, yurak-qon tomir hamda harakat tayanch tizimi kasalliklarini davolashga ixtisoslashgan.

- Sanatoriymiz tizimdagi sihatgohlar ichida eng baland va ko'p qavatli bino hisoblanadi, - deydi "Sangardak sanatoriysi" MCHJ direktori Z.Muhammadiyev. - Birinchi qavatda qabul va boshqaruv bo'limlari joylashgan. 2-7 qavatlarda barcha qulayliklarga ega yotoqxonalar mavjud. Majmua 250 o'ringa mo'ljallangan. Bu yerda yiliga 6,5 mingdan ziyod fuqaro o'z sog'ligini tiklash imkoniyatiga ega bo'ladi. Sanatoriya ishga tushishi munosabati bilan 150 dan ortiq ishchi o'rnlari yaratildi. 10 nafar oliy toifali vrach, 26 nafar hamshira, 20 nafar kichik tibbiy xodim dam oluvchilar va davolanuvchilarga xizmat ko'rsatadi.

Ana shu sihatgohning tantanali ochilish marosimida ishtirok etganligimiz va uning ilk imtiyozli dam oluvchilardan bo'lganimizdan behad xursandmiz. Bu biz mehnat faxriylari va keksalariga e'tibor va g'amxo'rlikning yorqin namunasidir. Ishonamizki, "Sangardak" yurtdoshlarimizning sevimli maskaniga aylanadi va uzoq yillar xalqimizga xizmat qiladi.

Biz dam olishimiz mobaynida vohaning diqqatga sazovor joylarini, jumladan, mashhur Sangardak sharsharasini, To'palang suv omborini borib ko'rdik. Yangilanayotgan yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini ko'rib hayratlandik, qalbimizda davlatimizdan minnatdorlik hislarini tuydik.

XARAJATI KAM, DAROMADI YUQORI USUL



Tanlangan yer maydonlarida piyoz, sarimsoqpiyoz, sabzi, karam, osh lavlagi, ko'katlar kabi odatiy sabzavotlar bilan birga, aysberg, brokoli, kolrabi, gulqaram, sedana kabi bozorgir, eksportbop va daromadi yuqori ekinlar ham ekilmoqda.

Ekinlardan kafolatli yuqori hosil olish uchun sinalgan 5797 tonna urug'lik, 3360 tonna yoqilg'i-moylash materiallari va 9660 tonna mineral o'g'it xazirasi yaratildi.

Mutaxassislarning dastlabki hisob-kitoblariga ko'ra, to'qsonbosti ekinlaridan 2024-yil bahorida 817 ming 468 tonna mahsulot olinishi kutilmoqda. Bu albatta, bahor mavsumida bozorlarimiz to'kinligi va aholining iste'mol talabini qondirishga xizmat qiladi. Olingan mahsulotning 11224 tonnasini eksport qilish, 12503 tonnasini qayta ishlash va 793740 tonnasini ichki bozorga chiqarish va aholi iste'moli uchun yo'naltirish rejalashtirilgan.

Tumanlarda ham bu jarayon davom etmoqda. Masalan, Bulung'ur tumanida 2024-yil bahorgi hosil uchun 3042 gektar maydonda to'qsonbosti usulida ekin ekish rejalashtirilgan.

- Dehqonlarimiz avgust va sentabr oylariga rejalashtirilgan piyoz va sarimsoqpiyozni ekib, undirib olishdi, hozirda sabzavot ekish ishlari davom etmoqda, - deydi tuman qishloq xo'jalik bo'limi boshlig'i Dilshod Sulaymonov. - Hisob-kitoblarimizga ko'ra, dehqonlarimiz to'qsonbosti ekinlaridan 9503 tonnadan ortiq, ya'ni qariyb 29 milliard so'mlik hosil olishi va qo'shimcha 533 ta ish o'rni yaratilishi kutilmoqda.

Tumandagi Mingchinor va Abdusalom Mahsumov nomli MMTP hududidagi fermer xo'jaliklari dehqonlari to'qsonbosti usulida ekin ekib, yuqori hosildorlikka erishishda yangicha usullarni ham sinovdan o'tkazishmoqda. Masalan, avvalgi odatiy usulda sarimsoqpiyoz qator ustida 3 tadan urug' donalab ekilgan bo'lsa, bu yildan ular sarimsoqpiyozni alohida qatorga ekishni sinovdan o'tkazishyapti. Bu birinchiidan, texnik ishlov berishni yaxshilasa, ikkinchiidan, hosildorlikni oshiradi. Ya'ni, odatiy usulda gektardan 4 tonnagacha sarimsoqpiyoz olingan bo'lsa, yangi sinovda hosildorlik gektariga 6-8 tonnaga yetadi.

- Tasarrufimizda 35 gektar yer maydoni bor va bu yil 9 gektar maydonda to'qsonbosti usulida piyoz va sarimsoqpiyoz ekdik, - deydi tumandagi "Bobojon ota" fermer xo'jaligi boshlig'i Kamoliddin Bobojonov. - Xo'jaliklarda bu yildan piyoz va sarimsoqpiyoz yetishtirishda yangi usullardan foydalanyapmiz.

Avval piyozni avgust oyida issiqxonada usulida ko'chat tayyorlab, oktabrda dalaga ekardik. Bu yil piyozni urug'idan seyyakada ekishni boshladik. Bu usulning afzalligi shundaki, hosil bir oy oldin tayyor bo'ladi, ishchi kuchi, ota, xarajat tejaladi, hosildorlik gektariga 30 foizga yuqori bo'ladi. Dastlabki hisobimizga ko'ra, to'qsonbosti ekinlaridan 1 milliard 100 million so'm daromad olamiz. Yetishtiriladigan mahsulotning sotilishi borasida tashvishimiz yo'q, tumanimizdagi "Bulung'ur Sandvik" korxonasi bilan shartnoma imzolaganmiz.

Matlab HASANOV, Normurod BOZOROV, mehnat faxriylari.

Prezident topshirig'iga ko'ra

Qadimdan tajribali bobodehqonlarimiz to'qsonbosti usulida ekin ekishgan. Bu avvalo, yerni almashlab ekish, qolaversa, ziroatchilikni rivojlantirishda juda samarali hisoblanadi. Ushbu tajriba bugun ham dehqonlarimiz tomonidan qo'llanilmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 24-avgustda viloyatimizga tashrifi davomida bergan topshiriqlari va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilish bayoniga asosan, bu yil viloyatda 42 ming gektar maydonda to'qsonbosti usulida sabzavot ekinlari ekish belgilangan. Bu tadbir avvalo, viloyat aholisini bahor oylarida ertagi sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlash, ichki bozorda narx-navo barqarorligini saqlash hamda ertagi eksportbop mahsulotlar yetishtirish, eksport hajmini oshirishga qaratilgan. Yana bir afzal jihati, kamxaraj va kam suvdan foydalangan holda mahsulot yetishtirish hisoblanadi. Shu bois tumanlardagi fermer xo'jaliklarining 1962 gektar ochiq yer maydoni, 4011 gektar bog'tok qator orasi, 31821 gektar aholi tomorqasi va 4206 gektar dehqon xo'jaliklari maydonlarida to'qsonbosti usulida ekinlar ekish davom etmoqda.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

# OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI: GLOBAL VA MILLIY MUAMMOLAR

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida 2023-yil 13-14-oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO) O'zbekistondagi vakilligi hamkorligida "Oziq-ovqat xavfsizligi: Global va milliy muammolar" (Food Security: Global and national Problems) V xalqaro ilmiy-amaliy anjumani bo'lib o'tadi.**



Oziq-ovqat xavfsizligi muhim strategik milliy masala – hayot faoliyatining yuqori standartlarini kafolatlash orqali O'zbekiston fuqarolarining turmush farovonligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining e'tibori tufayli so'nggi yillarda agrar sohada misli ko'rilmagan islohotlar davri bo'ldi, o'z vaqtida qabul qilingan qarorlar mamlakatimizga qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni sezilarli oshirish evaziga taraqqiyotga erishish hamda O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish va jahon bozorlarida uning mavqegini ko'tarish imkonini berdi.

2019-yil 23-oktabrda Prezident farmoni bilan to'qqizta muhim masalani o'z ichiga olgan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi" tasdiqlandi. Ulardan birinchisi aholining oziq-ovqat xavfsizligi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi va mehnatga layoqatli aholining 27 foizi shu sektorda ishlaydi. Shuning uchun qishloq xo'jaligini eng samarali va resurs tejovchi sohaga aylantirish, qishloq aholisi turmush farovonligini oshirish, odamlarni xavfsiz, vitaminlarga boy, arzon va barqaror narxdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, sog'lom ovqatlanishni

yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2017-yildan buyon Samarqand davlat universitetida "Oziq-ovqat xavfsizligi: Global va milliy muammolar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazib kelinadi.

Iqlimning, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetkazib berish global tizimlarining muttasil o'zgarishi iste'molchilar, sanoat va sayyoramizga ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu o'zgarishlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash tizimlarida aks etishi, ekologik barqarorlik va rivojlanishdagi muammolarga olib kelishi mumkin. Hisob-kitoblarga ko'ra, zararli oziq-ovqat mahsulotlari 600 millionga yaqin kasallanish holatlarini keltirib chiqaradi va inson salomatligi hamda iqtisodiyotga xavf tug'diradi.

Hozirgi kunda globallashuv sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini bir mamlakat doirasida amalga oshirish mumkin emas, ushbu maqsadga erishish uchun tizimlashtirilgan keng ko'lami tadbirlar o'tkazish lozim.

Mazkur anjumanda 32 mamlakat va 30 xalqaro tashkilotdan 620 dan ortiq mehmon ishtirok etadi. Xususan, Harvard universiteti Tibbiyot kolleji (AQSH), Quad-I Azam universiteti (Pokiston), Sankt-Peterburg politexnika universiteti biotibbiyot tizimlari va biotexnologiyalar

instituti, Oltoy davlat universiteti, Boshqirdiston davlat universitetlari (Rossiya), shuningdek, L.N.Gumilev nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti hujayra biologiyasi va biotexnologiya instituti (Qozog'iston) olimlari qatnashadi.

Xalqaro konferensiyada jahonda, xususan, Markaziy Osiyoda oziq-ovqat xavfsizligi masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, agrooziq-ovqat tizimlari, agrar sohaning barqaror rivojlanishiga erishishga to'sqinlik qilayotgan muammolar, shuningdek, mamlakatimizda va jahonda ularni hal etish yo'llari muhokama qilinadi. Anjuman davomida qishloq xo'jaligining 2030-yilgacha barqaror rivojlanishi bo'yicha chora-tadbirlari amalga oshirish maqomini yaxshilash tahlil qilinadi.

Shuningdek, anjuman doirasida Samarqand viloyatining agrooziq-ovqat salohiyatiga doir ko'rgazma hamda Biokimyo instituti olimlarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy ishlanmalari ko'rgazmalari o'tkaziladi.

**Abdurashid JABBOROV, Samarqand davlat universiteti zoologiya kafedrasini mudiri, professor.**  
**Abdunabi MAMASHUKUROV, kafedra assistenti.**  
**Asolat HAMIDOVA, kafedra katta o'qituvchisi.**

**Samarqand davlat chet tillar institutida 13-14-oktabr kunlari "Buyuk ipak yo'lida umuminsoniy qadriyatlar: til, ta'lim va madaniyat" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkaziladi.**

Konferensiya ishida xalqaro oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrlar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilarining 100 ga yaqin ilmiy ma'ruzalari tinglanadi.

Dasturga muvofiq ishtirokchilar, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida o'zaro muloqot va hamkorlik, Buyuk ipak yo'li mamlakatlarida til, ta'lim, madaniyat va tarix mushtarakligi, xorijiy til o'rgatish jarayonida pedagogik hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, matnshunos-

## "BUYUK IPAK YO'LIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR: TIL, TA'LIM VA MADANIYAT"



lik va adabiy manbashunoslik, tarjima nazariyasi va amaliyoti, til va adabiyot nazariyasi, oliy o'quv yurtlarida Sharq tillarini o'qitishning zamonaviy metodikasi muammolari kabi mavzular-

da shu'balarga bo'lingan holda muhokamaga kirishadilar.

Institutda oxirgi yillarda sharq mamlakatlarining tili, adabiyoti va madaniyatini o'qitishga katta e'tibor qaratilmoqda. Talabalarning o'z mu-

taxassisliklari bo'yicha bilimlarini takomillashtirish, tarjimon dasturlari va multimedial o'quv kurslari imkoniyatlaridan bahramand etish uchun chet tillarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya vositalari, virtual ta'lim resurslari, masofali o'qitish tizimlari joriy etilmoqda.

Shu bois hozirgi yosh avlod bilimi va dunyoqarashini o'stirishda kitoblar mutolaasi bilan birga Buyuk ipak yo'li mamlakatlarida til, ta'lim, madaniyat va tarix mushtarakligi haqida ma'ruzalar qilish, oliy o'quv yurtlarida Sharq tillarini o'qitishning zamonaviy metodikasini joriy etish muhimidir.

**Bobur QURBONOV.**

### Nazir RAJABOV

Taniqli davlat va jamoat arbobi Nazir Rajabov 84 yoshida olamdan o'tdi.

N.Rajabov 1939-yilda Buxoro viloyatida tug'ildi. O'rta Osiyo politexnika institutini muhandis-mexanik mutaxassisligi bo'yicha tamomladi. Turli sohalarda rahbarlik lavozimlarida ishladi. 1975-1977-yillarda Buxoro viloyati partiya qo'mitasi kotibi, 1978-1984-yillarda Qurilish vaziri sifatida samarali faoliyat olib bordi. 1984-1987-yillarda Namangan viloyatiga, 1987-1988-yillarda Samarqand viloyatiga rahbarlik qildi.



Samarqandda birinchi rahbar lavozimida ishlagan davrida N.Rajabov tashabbusi bilan viloyatda keng ko'lami qurilish va bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi, ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarda katta yutuqlarga erishildi. Shu bois samarqandliklar u kishi amalga oshirgan xayrli ishlarni alohida hurmat bilan tilga olishadi. Dehqonlar, ayniqsa, oddiy kasb egalari, hatto o'rta bo'g'in rahbarlari bilan til topishish, erkin suhbat qurish, ularning mulohazalarini eshitish, fikrlarini hisobga olish xislatlarini bugungi yoshlarga ibrat qilib ko'rsatishadi. N.Rajabovning samimiyligi o'sha davr odamlarida fidokorona ishlashga imkon yaratdi. Yig'ilishlarda yangi kitoblar, san'at asarlari, gazeta yangiliklari haqida to'lib-toshib gapirar, har bir samarqandlikni shunday faoliyat ko'rsatishga undardi.

1988-yil "paxta ishi" avj olgan davrda N.Rajabov lavozimidan ozod etilib, hibsga olindi va umrining 9 oyini qamoqda o'tkazdi. Tergov jarayonida unga qo'yilgan ayblovlar tasdiqlanmagach, u kishiga tirkalgan jinoyat ishi tugatildi.

Xalqimizda "Dunyo yaxshi insonlarga suyanadi", degan gap bor. Ammo bu yaxshilar orasida ham Alloh nazar qilganlari, iqtidorli va noyob zakovat egalari mavjud. Qirq besh yoshidayoq viloyatning birinchi rahbari, mamlakat va respublika davlat mukofoti sohibi bo'lgan Nazir Rajabov ana shunday mo'jizaviy xislatli insonlardan biri edi.

Nazir Rajabovning yorqin xotirasi samarqandliklar qalbidagi abadiy saqlanadi.

**SAMARQAND VILOYATI HOKIMLIGI.**

### Shuhrat DEHQONOV

O'zbekiston kasaba uyushmalari fidoyi vakili, umrining qariyb chorak asrini soha rivojiga bag'ishlagan ustoz, O'zbekiston madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashi raisi Shuhrat Dehqonov 73 yoshida vafot etdi.



Sh.Dehqonov 1950-yilda Toshkent viloyati Bekobod tumanida tavallud topdi. 1972-yilda Toshkent davlat (hozirgi O'zbekiston Milliy) universitetini tugatdi. U ish faoliyatini Afg'onistonda boshladi va fors-yil xalq bilan munosabatlar o'rnatishda tarjimonlik qildi.

Mamlakatimizga qaytgach, 1975-yilda Bekobod shahar bosmaxonasida musahhihlik qildi. Keyinchalik Bekobod tumani yoshlar qo'mitasida, 1978-yildan xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashida ishladi. Jizzax shahar hokimi o'rinbosari, Jizzax viloyati hokimligi kotibiyati mudiri vazifalarida samarali faoliyat yuritdi.

1998-yildan e'tiboran Shuhrat Dehqonovning asosiy faoliyati kasaba uyushmalari sohasida kechdi. O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Jizzax, Samarqand va Toshkent viloyati kengashlari, so'ngra Toshkent viloyati kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi kengashi raisi lavozimlarida ishladi.

2017-2018-yillarda O'zbekiston ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi o'rinbosari, keyinchalik O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi madaniy-ma'rifiy va sport ishlari bo'limi mudiri, 2020-yildan umrining oxirigacha O'zbekiston Madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashi raisi lavozimida faoliyat yuritdi.

Sh.Dehqonovning xizmatlari munosib taqdirlangan. U 2021-yilda "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan. Shuningdek, O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining "Ehtirof" nishoni sohibi edi.

Kasaba uyushmalarining fidoyi xodimi, mehribon ustoz, kamtarin inson Shuhrat Dehqonovning xotirasi qalbimizda doimo saqlanib qoladi.

**O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASINING SAMARQAND VILOYATI KENGASHI.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

#### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Yusupov Xasan Sirodjevichga (2021-yil 26-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Axatova Sevraga (1995-yil 6-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Normatov Mu-

rod To'ychiyevich notarial idorasida marhum Umarov Baxodir Mirg'aniyevichga (2006-yil 27-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Normatov Murod To'ychiyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani Andijoni mahallasi.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Abdullayev G'olib Nortoshovichga (2023-yil 21-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum

Salmanov Saidga (2016-yil 21-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Arutyunova Nina Artyomovna (1985-yil 12-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Uzbekova Qanoat Negmatovna (2022-yil 19-yanvarda

vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Butayeva Mavjuda Muminovna (2017-yil 9-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Xamidov Daniyarbek Abduvaitovichga (2023-yil 3-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat

bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.**

Oqdaryo tumanidagi "HASANQIRQ" fermer xo'jaligining (STIR: 203098614) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

Samarqand shahridagi "KIMYOGAR ZIYO" nodavlat ta'lim muassasasining (STIR: 207238167) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "ROYAL PALACE SAMARQAND" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 305781323) dumaloq muhri, burchak tamg'asi va hisob raqam (rekvizitlar) muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

# YANGI O'ZBEK ALIFBOSI TAKOMILLASHISH ARAFASIDA

**Jiddiy muhokama va munozaralarga sabab bo'lgan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga kiritiladigan o'zgarishlar masalasi hal bo'lish arafasida. Oxirgi muhokama va amalda qo'llash uchun uni tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ixtiyorida qoldi. Ushbu loyiha yakdillik bilan qabul qilinsa, o'zbek adabiy tilining rivojiga, imlomizning mukammallashuviga, ta'lim-tarbiya samaradorligi hamda savodxonligimizning oshishiga xizmat qiladi. 1993-yilning 2-sentabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq XIII sessiyasida yangi alifboga o'tish masalasi qonunlan hal etilib, 1995-yil may oyida bu qonunga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan va masalaga uzil-keshil nuqta qo'yilgandek bo'lsa-da, o'tgan o'ttiz yildan ortiq vaqt uning amalga to'liq tatbiq etilishi uchun yetarli bo'lmadi.**

Qizil imperiya saltanati umri tugab, mustaqillikka erishilgach, bir vaqtlar xalq nomidan noma'qul ishlar qilinib, asriy alifbolari ixtiyoriy-majburiy tarzda almashirilgan bir qator qardoshlarimiz tezlik bilan kirill yozuvidagi o'z alifbolarini lotin yozuviga asoslangan yangi alifboga o'zgartirib oldilar va amalga tatbiq etib ulgurдилar ham, boshqa birlari yangi lotin alifbosiga o'tishga jiddiy tayyorgarlik ko'rmoqdalar.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, arab yozuvidan lotin yozuvi asosidagi alifboga o'tishni birinчилardan bo'lib Turkiya Respublikasi o'tgan asrning 20-yillarida boshlab berdi. Turk lotin alifbosida 29 ta harf mavjud bo'lib, ular alifboda quyidagi tartibda joylashgan: **Aa, Bb, Cc, Cc, Dd, Ee, Ff, Gg, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Qq, Ll, Mm, Nn, Oo, Oo, Pp, Rr, Ss, Ss, Tt, Uu, Uu, Vv, Yy, Zz**. Bu alifbo qariyb yuz yildan buyon qardosh turk xalqining ma'naviy-madaniy ehtiyojini to'lasincha qondirib kelmogda.

Oradan yarim asrdan ko'proq vaqt o'tgach, XX asr oxirig'iga kelib, mustaqillikni qo'lga kiritgan O'zbekiston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qozog'iston davlatlari ham Turkiya Respublikasining ta'shlabhusini qo'llab-quvvatlagan holda davom ettirdilar.

Ozarbayjonda ham lotin alifbosiga birinchi marta 1922-yilda o'tilgan. Bu alifbo 1939-yil may oyigacha qo'llanishda bo'lgan. Ikkinchi jahon urushi arafasida sobiq sho'rolar davlati tarkibidagi ko'pchilik respublikalar qatori lotin alifbosidan kirill alifbosiga o'tilgan. Bu alifbo quyidagi tartib va tartibda edi: **Aa, Bb, Bb, Gg, Ff, Dd, Ee, Ee, Jj, Kk, Zz, Ii, Ii, Kk, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Oo, Pp, Pp, Ss, Ss, Tt, Uu, Uu, Vv, Yy, Zz**. Bu alifbo quyidagi tartib va tartibda edi: **Aa, Bb, Bb, Gg, Ff, Dd, Ee, Ee, Jj, Kk, Zz, Ii, Ii, Kk, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Oo, Pp, Pp, Ss, Ss, Tt, Uu, Uu, Vv, Yy, Zz**. Bu alifbo quyidagi tartib va tartibda edi: **Aa, Bb, Bb, Gg, Ff, Dd, Ee, Ee, Jj, Kk, Zz, Ii, Ii, Kk, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Oo, Pp, Pp, Ss, Ss, Tt, Uu, Uu, Vv, Yy, Zz**.

Turkmanistonda 1928-yil 3-yanvarda lotin alifbosiga, 1940-yil 1-iyuldan kirill alifbosiga o'tilgan. Turkman kirill alifbosini: **Aa, Bb, Bb, Gg, Ff, Dd, Ee, Ee, Jj, Kk, Zz, Ii, Ii, Kk, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Oo, Pp, Pp, Ss, Ss, Tt, Uu, Uu, Vv, Yy, Zz**. Bu alifbo quyidagi tartib va tartibda edi: **Aa, Bb, Bb, Gg, Ff, Dd, Ee, Ee, Jj, Kk, Zz, Ii, Ii, Kk, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Oo, Pp, Pp, Ss, Ss, Tt, Uu, Uu, Vv, Yy, Zz**. Bu alifbo quyidagi tartib va tartibda edi: **Aa, Bb, Bb, Gg, Ff, Dd, Ee, Ee, Jj, Kk, Zz, Ii, Ii, Kk, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Oo, Pp, Pp, Ss, Ss, Tt, Uu, Uu, Vv, Yy, Zz**.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ham 1940-yildan 1993-yilgacha quyidagi kirill alifbosidan foydalanib kelindi: **Aa, Bb, Bb, Gg, Ff, Dd, Ee, Ee, Jj, Kk, Zz, Ii, Ii, Kk, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Oo, Pp, Pp, Ss, Ss, Tt, Uu, Uu, Vv, Yy, Zz**. Bu alifbo quyidagi tartib va tartibda edi: **Aa, Bb, Bb, Gg, Ff, Dd, Ee, Ee, Jj, Kk, Zz, Ii, Ii, Kk, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Oo, Pp, Pp, Ss, Ss, Tt, Uu, Uu, Vv, Yy, Zz**.

Qozog'iston ham lotin yozuviga asoslangan yangi qozoq alifbosini ishlab chiqib, amalga tatbiq etishni boshladi. Qozog'istonda yangi alifboga o'tish haqida chiqarilgan qarordan so'ng alifboning qirgandan ortiq namunasi, qozoq tili imlo qoidalari va kompyuter klaviaturasida harflarni qanday tartibda joylashtirish loyihalari ham e'lon qilingan. Yangi alifbo 31 ta harfdan iborat bo'lib, qozoq tilidagi 11 ta unli va 20 ta undosh tovushni to'liq qamrab oladi: **Aa, Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Gg, Hh, Ii, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Dn, Oo, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Ss, Tt, Uu, Uu, Vv, Yy, Zz**.

Qozoq tilining o'ziga xos e (ä), ö (ö), y (ü), y (ü) f (ğ), ш (ş) tovushlari xalqaro amaliyotda ishlatib kelinayotgan umlaut (¨), makron (˘), sedil (˙), brevis (˘) kabi diakritik belgilar bilan berilishi belgilab qo'yilgan. Ular "**Bir tovush – bir harf**" tamoyiliga asoslanib ish ko'rilgan. Yangi qozoq lotin alifbosiga 2023-yildan o'tish boshlanib, 2031-yilgacha bosqichma-bosqich o'tib bo'lish rejalashtirilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, keltirilgan turk, ozarbayjon, turkman, qoraqalpog' qozoq alifbolarining barchasi ham bir necha martadan tuzatish va o'zgartirishlar kiritilgandan so'nggina hozirgi takomillashgan ko'rinishga ega bo'lgan. Bu jarayonni, og'rinmasdan, hech qanday hissiyotlarga berilmasdan to'g'ri tushunish, tabiiy qabul qilish lozim.

Amalga tatbiq etilayotgan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini biz uchun ham yangilik emas. Chunki 1929-yildan 1940-yil sentabr oyigacha qariyb o'n bir yil atrofiga xalqimiz bu alifbodan foydalangan. Hozir ham



o'sha alifbo harflari ba'zi keksa avlod vakillari-ni yodidan ko'tarilganicha yo'q. Bu alifboning tarkibi quyidagicha bo'lgan: **Aa(o), Bb, Cc(чe), Cc(дж), Dd, Ee, Ee(a), Ff, Gg, Qq(ре), Hh, Ii, Jj(й), Kk, Ll, Mm, Nn, Dn(нr), Oo(ы), Pp, Qq, Rr, Ss, Ss(ш), Tt, Uu, Vv, Xx, Z z, Z z(ж)**.

Bu alifbodagi 10 ta harf hozir amalda qo'llanilayotgan harflarimizdan shakl jihatidan biron farq qiladi. Bular quyidagilar: **Aa(o), Cc(чe), Cc(дж – jo'ja), Ee(a), Qq(ре), Jj(й), Dn(нr), Oo(ы), Ss(ш), Z z(ж – jurnal)**. 1940-yilgacha xizmat qilgan mazkur alifboda 30 harf bo'lib, ularning oltitasi unli: **Aa(o), Ee, Ee(a), Ii, Oo(ы), Uu** va qolgan 24 tasi undosh tovushlarni ifodalash uchun xizmat qilgan.

Lotin yozuviga asoslangan bu alifbodan 1940-yil may oyida qabul qilingan qonunga binoan uch oy ichida kirill yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tib ketilgan. Uning tarkibi quyidagicha: **Aa, Bb, Bb, Gg, Ff, Dd, Ee, Ee, Jj, Kk, Zz, Ii, Ii, Kk, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Pp, Ss, Ss, Tt, Uu, Uu, Vv, Yy, Zz**. Bu alifbo asosida tayyorlangan "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" 72 paragrafdan iborat bo'lib, 1954-yil 4-aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan tasdiqlangan. Bu qoidalari kirill alifbosida ish yuritayotgan aholi uchun hozir ham amalda.

Tilshunos olimlarimiz kirill alifbosini va u asosida tuzilgan imlo qoidalari-mizdan bir qator kamchiliklari borligini o'tgan asrning oltin yillari davri beritib ta'kidlab keladilar. Bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida bir necha bor o'zbek tilining yangi imlo qoidalari loyihalari tayyorlanib, muhokama uchun matbuotda e'lon qilingan edi. Biroq ularni qabul qilishga o'sha davrda hukmron bo'lgan mafkura ruxsat bermadi va buning jabrini xalqimiz hali-hanuz tortmoqda.

Mamlakatning mustaqilligini ko'rsatadigan ramzlardan biri bo'lgan yangi o'zbek lotin alifbosiga nima uchun to'liq o'ta olmayapmiz degan haqli savol ko'pchilikni qiziqtiradi. Buning bir qancha obyektiv va subyektiv sabablari bor, albatta. Mamlakatimiz jamiyatimiz taraqqiyotini, kelajakimiz asosini yaratayotgan yoshlarimiz erishayotgan muvaffaqiyatlarni tan olmayotgandek tuyulayotgan ayrim kishilar, birinchi va asosiy sabab qilib yigirma yildan ortiq muddatdan buyon amalda bo'lgan yangi o'zbek alifbosidagi ayrim no-qisliklarni ro'kach qilib ko'rsatmoqdalar va shu bahonada lotin alifbosini umuman yaroqsiz, mamlakatni savodsiz qiladi degan o'ta asossiz da'volarni bildirmoqdalar. To'g'risi, alifboda ayb ham, muammo ham yo'q. Ayb ham, muammo ham o'zimizda. Axir lotin alifbosini kashf etilganiga necha ming yil bo'lgan. Bugungi kunda taraqqiy etgan yetmishdan ortiq mamlakatda dunyo aholisining o'ttiz foizdan ortig'i shu yozuv asosidagi o'z alifbolarini yaratib olgan va unga tayyanib, ta'lim-tarbiya bermoqdalar, ish qo'zlarini yuritmoqda, davlatlararo diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'yimoqda.

Yangi alifbomiz nafaqat yoshlarimizga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishda, shuningdek, chet elliklarga ham tilimizni tez va oson o'rganishlarida qo'l kelmoqda. Alifbo tarkibidagi ayrim nuqsonlarga kelsak, ularni deb yangi zamonaviy alifbodan voz kechish emas, alifbodagi nuqsonlarni barchamiz birgalashib, yakdillik bilan bartaraf etishimiz, taraqqiyotimizni tezlashtiruvchi alifboga eng zarur tuzatishlar kiritib, uni mukammal holga keltirishimiz kerak.

Ayrimlar maqtoyotgan, voz kechishni istamayotgan kirill alifbosida nuqsonlar bo'lmaganda edi, undan voz kechilib, yangi alifboga o'tish to'g'risida gap-so'z ham bo'lmagan, qonunlar ham, davlat dasturlari ham qabul qilinmagan bo'lar edi.

Keling, yaxshisi, kirill alifbosidagi ayrim kamchiliklarni ham bir tahlil qilib ko'raylik. 1940-yil may oyida shoshma-shosharlik va mustabid sho'rolar tuzumi bosimi ostida rus tili ohangi va imlosiga bo'ysundirilgan o'zbek kirill alifbosini qabul qilindi. Unda o'zbek tiliga yet bo'lgan **ь – yumshatish, ъ – ayirish belgilar**, **ц, я, ю, ё**, e harflari ham o'z ifodasini topdi. Ikki ta mustaqil tovushni yozuvda ifodalash uchun birgina **ж** harfi (**жужа, жахон – гижда, мужда**) kiritilgani yetmaganay, sof o'zbekcha yuzlab so'zlarda uchraydigan **[н]** - [n] burun tovushini ifodalash uchun harf ham tanlanmagan edi. Bundan tashqari, kirill alifbosidagi "e" grafemasi **мен, сен, кенә, тәңә** kabi so'zlarda bo'g'in o'rtasida kelsa, bitta [e] tovushini ifodalaydi, **елка, еңил, поезд** kabi so'zlarda esa **[йә]** tovushlar birikmasini ifodalaydi. Shuningdek, **шофёр, монтёр, шахтёр** kabi so'zlar "ё" grafemasi bilan yozilgani holda, **майор, район** kabi so'zlar **йо** harflari birikmasi bilan yozilishini maktab bolalariga tushuntirib ko'ringchi! Bular kirill alifbosidagi nuqsonlardan ayrimlarigina, xolos.

Lotin yozuvidagi o'zbek alifbosidan kamchilik qidirayot-

ganlar, nuqson topayotganlar nega kirill alifbosidagi ko'z yumadilar. Biz ommaviy savodsizlikka barham berish, xalqaro kommunikatsiya jarayoniga tezroq kirish, barcha jabhalarda mamlakatimiz taraqqiyotini tezlashtirish maqsadida yangi alifboga o'tganimiz va bu o'z vaqtda qabul qilingan to'g'ri qaror bo'lgan.

Garchi hissiyotlarga to'lib-toshgan muhokamalar tugab, navbat so'nggi so'zga kelgan bo'lsa-da, masala o'ta muhim bo'lganligi tufayli munozara va turli xavotirlar tinganicha yo'q.

Bu xavotirlarning birinchisi, yangi alifboni qariyb o'ttiz yildan beri o'rganmay kelayotgan katta yoshli kishilarda sezilmogda. Ular yangi alifboga o'tib ketilsa (yangi alifboga o'tish uchun o'ttiz yillik tayyorgarliklarimiz qayoqqa ketdi?!), qanday qilib ishlayman, degan xavotirda kirill alifbosini afzal, deb bilmogda. Bunday xavotirdagi kishilar uzog'i bilan yana 3-4 yil ichida yangi alifboda savod chiqargan va ish yuritishga to'la tayyor turgan yosh mutaxassislarga o'z o'rinlarini bo'shatib berishlari lozimligini tan olmayotganlardir.

Ikkinchi xavotir shuki, o'ttiz yildan buyon kamchiliklari sezilib turgan, ammo tuzatishga imkon bo'lmagan yangi alifboni isloh qilib, uni amalga joriy etishga, ya'ni shiorlar, bannerlar, ko'rsatkichlar, gazeta, jurnallar, darslik va o'quv qo'llanmalar, hujjatlarni almashirish, xodimlarni o'qitish va boshqa shu kabi xalqaro ketadigan xarajatlar uchun "bir olam" mablag' sarflanishi lozim, deb hisoblayotgan "hadikchilar"ning behuda tashvishlanayotganliklaridir.

Bu xavotir ham o'rinni emas. Bunday ishlar uchun mablag' kerak bo'ladi, albatta. Ammo xavotir olinayotganicha juda ulkan va dahshatli miqdordagi emas. Shuni unutmaslik kerakki, kelajak uchun, kelajak avlod uchun qilinayotgan bugungi alifbo islohoti kelgusida katta samara berib, ulkan xarajatlardan ustahkam paydov bo'ladi. Shuni unutmaylikki, bu dunyoda hech narsa abadiy emas, hamma narsa muvaqqat, rivojlanish va taraqqiyotda, doimiy harakatda. Shahar-u qishloqlarimizni bezab turgan rang-barang shiorlar, bannerlar, ko'rsatkichlar, reklama va e'lonlarning barchasi ma'lum muddatgagina xizmat qiladi, muddati o'tab bo'lingach, ular o'miga boshqalari yangi alifboda chiroqli qilib chiqarib qo'yilaveradi.

Chop etib kelinayotgan davriy nashrlar – gazeta va jurnallar bosqichma-bosqich yangi alifbo va imloga o'tkazilmoqda, maktab darsliklari va o'quv qo'llanmalar ko'pi bilan 3-4 yilda qayta-qayta nashrdan chiqariladi. Endi yuritilayotgan hujjatlarni almashirish masalasiga kelsak, bu ham u qadar murakkab emas. Chunki barcha hujjatlarini isloh qilingan yangi alifboda bir-to'la almashirish shart emas. Ular ham ma'lum muddatda o'z umrini o'tab bo'lgach, almashirilaveriladi. Arxivlarimizdan hozirda ham arab yoki lotin alifbosidagi hujjatlardan nusxa olib foydalanilmogda-ku. Kutubxonalarimizda arab, lotin, kirill alifbolarida nashr etilgan nodir asarlar jamiyatimiz taraqqiyotiga beminnat xizmat qilib kelmogda. Buni hech kim inkor eta olmaydi. Alifboga kiritilgan o'zgartirishlarni yangi alifboda hujjatlar tayyorlashni o'rganayotgan xodimlarga bir-ikki darsdayoq o'rgatish mumkin bo'ladi. Buning hech ham og'irlik joyi yo'q, gap faqat maqsad va xohishda.

Keling, bu xavotirlarga aslo o'rinni yo'qligini, aksincha, alifbodagi kamchiliklarga qanchalik tez isloh qilinsa, foydadan xoli emasligini yanada aniqroq misollar yordamida ko'ri pi bilan o'taylik.

1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonun qabul qilinib, quyidagi alifbo amalga tatbiq etish uchun tasdiqlangan edi: **Aa, Bb, Cc, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, Cc, Gg, Jj, Nn, Oo, Ss, (')**. Ammo "zamonaviy axborot texnologiyalariga tushmadi" degan bahonalar bilan 1995-yil may oyida bu alifbodagi ayrim harflarga o'zgartirish kiritilib, quyidagi tartibga keltirildi: **Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, Cc, Gg, Jj, Nn, Oo, Ss, (')**. Ammo "zamonaviy axborot texnologiyalariga tushmadi" degan bahonalar bilan 1995-yil may oyida bu alifbodagi ayrim harflarga o'zgartirish kiritilib, quyidagi tartibga keltirildi: **Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, Cc, Gg, Jj, Nn, Oo, Ss, (')**.

Qariyb o'ttiz yildan buyon bu harflarga ko'zimiz anchagina o'rganib ham qoldi. Shundan atigi 2 ta harf va 3 ta harflar birikmasining qisman, shaklan o'zgartirilishi taklifi ilgari surilmogda, yanada soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, **O'o', G'g', SHsh, CHch, Ngng** harflari va harflar birikmalarining kompyuter va yozuv texnikalarida qo'llanishidagi g'ayrioddiy holatlardan qutilish, qo'lyozma holatida ham ixchamlikka erishish uchun ularga tuzatishlar kiritilmogda.

E'tibor bering: **O'o'** harfi **Oo** shakliga, **G'g'** harfi **Gg** shakliga (bu ikkala harfning yangi ko'rinishi ularning amaldagi yozma shakllariga yaqinlashtirilgan), **SHsh** harflari birikmasi

### Nafsilamrini aytganda

**Sh** shakliga, **CHch** harflari birikmasi **Cc** shakliga o'tkazilishi maqbulligi haqidagi mulohazalar ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda bo'lgan aksariyat muhokamalarda, Davlat tilini rivojlantirish departamenti yig'ilishlarida ma'qullanib, tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi muhokamasiga taqdim etilgan. Bu o'zgarishlar alifbomizdagi mavjud to'rt harfning ixchamlashishiga olib kelyapti, ular tashqaridan boshqa biror bir harf bilan almashirilayotgani yo'q. Mana shu o'zgarishlar bilan isloh qilingan va tasdiqlash uchun tavsiya etilgan lotin yozuviga asoslangan yangi alifbomiz quyidagicha nisbatan mukammal ko'rinish oladi: **Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, Oo, Gg, Ss, Cc, Ngng**. Agar mana shu isloh qilingan alifbo tegishli tasdiqlardan o'tib, amaliyotga tatbiq etilsa, ortiqcha xavotir va muhokamalargagina emas, alifbo va imloni amalda qo'llashdagi barcha noqulayliklarga barham berish uchun ham asos bo'ladi.

Biz "**Oo**", "**Gg**", "**Ss**" ba "**Cc**" harflarining yangi shakllarini qo'llab-quvvatlaymiz, ularning yangicha ko'rinishiga e'tiroz bo'lishi mumkin emas.

Ammo "**Ng ng**" harflari birikmasining alifbo sirasida saqlanib qolishiga jiddiy e'tirozimiz bor. "**Ng ng**" harflari birikmasi o'miga alohida bitta shaklli harf olinmaydigan bo'lsa, bu harflar birikmasini ham alifbo sirasidan chiqarish kerak. Nega? Chunki yangi alifbomizga mustaqil undosh tovush ifodalovchi **Nn** va **Gg** harflari bilan bir qatorda, o'zbek tilining o'ziga xos burun tovushini ifodalovchi **Ng ng** harflari birikmasining ham "adashib" kirib qolganligi maktab o'quvchilarini ham, tilimizni o'rganuvchilarni ham chalg'itib kelyapti.

Yozuvda so'zlar tarkibidagi **ng** harflari birikmasini har ikkalasi mustaqil holda, alohida **[n]** va **[g]** undosh tovushlarini ifodalovchi **n** va **g** harflaridan farqlashning hech ham imkoni yo'q. Chunki ular shakl jihatidan bir xildir. Masalan, quyidagi so'zlarda ma'no farqlash uchun xizmat qiladigan **ng** harflari birikmasi bilan yoziladigan burun tovushini so'zlarni alohida **n** va **g** tovushini ifodalovchi harflar bilan yoziladigan so'zlardan talaffuz etish orqali ularni bir-biridan farqlashning hech ham iloji yo'q. Marhamat, ularni yozuvda farqlab ko'ring: **tanga** (mayda, chaqa pul) – **tanga** (tanaga, gavdaga), **ko'ngil** (yurak, qalb) – **ko'ngil** (rozi bo'li), **tongin** (tong paytini) – **tongin** (inkor et), **singil** (qiz qarindosh) – **singil** (sinish), **to'ngimoq** (sovoqtoqmoq, muzlamoq) – **tungi** (tun paytidagi), **o'ngimoq** (rangi o'chmoq, eskirmoq) – **o'nga** (o'n soniga) – **o'ngga** (o'ng tarfaga), **engil** (ust-bosh) – **engil** (pastga tush) va hokazo.

Xo'sh, bu so'zlarning qaysi biri **ng** burun tovushini ifodalovchi harflari birikmasi bilan, qaysilari **n** va **g** mustaqil harflari bilan yozilgan? Tilimizda bunday so'zlar juda-juda ko'p. Ular yozuvda **ng** burun tovushini ifodalovchi harflar birikmasi hamda **n** va **g** mustaqil harflari bilan xil shakllarda beriladi, bunday so'zlarning qaysi birida **ng** harflari birikmasi, qaysi birida esa har biri bir mustaqil undosh tovushini ifodalovchi alohida harf ekanligini farqlab bo'lmaydi. Ular yozuvda shakl jihatidan farqlanmasa, talaffuzda qanday farqlash mumkin? Vaholanki, bu tovushlar nutqimizda yaqqol farqlanadi, so'zga boshqa ma'no va jilo beradi, so'zlovchi va tinglovchi talaffuzdagi ana shu farqlilikka qarab ularni o'z o'rnida qo'llayveradi. Afsuski, buni farqlay olmaydigan o'quvchilar, talabalarigina emas, ayrim teraleradio boshlovchilari, suxandon va jurnalistlar ham **[ng]** burun tovushini alohida **[n]** va **[g]** undosh tovushlari kabi qo'pol urg'u bilan **akan-giz, maqsadin-giz, istagin-giz** va hokazo tarzda noto'g'ri talaffuz etib kelishmogda. Vaholanki, bu so'zlar **aka-ngiz, maqsadi-ngiz, istagi-ngiz, bola-chaq-a-ngiz, ko'ngil-ngiz** tarzida muloyim, ohangdor talaffuz etilishi lozim. Agar yangi alifbomizda **[ng]** burun tovushini ifodalovchi alohida **Dn** harfi olinganda edi, bu muammo o'z-o'zidan bartaraf etilgan bo'lar edi. Ming yillar davomida shakllanib, yuksak taraqqiy topgan ona tilimiz tovushlari orasida o'ziga xos ohangdorlikka ega bo'lgan, boshqa tillarda uchramaydigan nodir burun undosh tovushini ifodalash uchun **Nn** harfining alifbomiz tarkibiga kiritilishiga qarshi bo'layotganlar ta'kidlayotganlaridek, uning alifbo tarkibida bo'lishi savodxonlikka putur yetkazmaydi, aksincha, kirill alifbosida sakson yildan ko'proq vaqtdan buyon yo'l qo'yib kelinayotgan imloviy xatolar, uslubiy g'alizliklarga butunlay barham berish uchun xizmat qilishini tilshunos-mutaxassis sifatida qat'iy ta'kidlayman. Agarki, **[ng]** burun tovushi uchun alifbomizda alohida belgi olinmayotgan emam, yuqoridagi aytib o'tilgan fikrlarimizga tayangan holda ushbu harflar birikmasini alifbo tarkibida qoldirganda ko'ra alifbo sirasidan chiqarish foydalirrog bo'ladi. Chunki tilimizdagi **[ng]** tovushli so'zlarni xuddi **tutuq belgisi** yoki baynalmilal so'zlardagi **ts** tovushli so'zlar kabi imlo qoidalari doirasida alohida mavzu doirasida o'rganish mumkin bo'ladi.

Hurmatli vatandoshlar, yangi alifbomizning takomillashirishiga to'siq bo'lganda ham, Yangi Rennassans davrida mamlakatimizning barq urib rivojlanishini ta'minlashga bel bog'lagan yoshlarimizga mustaqil, ijodkorlik va tashabbuskorlik bilan harakat qilishlari uchun yo'l beraylik, ularni qo'llab-quvvatlaylik!

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosini tarkibiga kiritilayotgan bu o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari, Senat a'zolari tomonidan yakdillik bilan qabul qilinsa, o'zbek adabiy tilining rivojiga, imlomizning mukammallashuviga, ta'lim-tarbiya samaradorligi hamda savodxonligimizning oshishiga, xullas, barcha sohalar tubdan yangilanayotgan mustaqil Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga keng yo'l ochiladi.

**Mardon BOLTAYEV, SamDU dotsenti.**

**1**

**MATBUOT UYI**

**Zarafshon**

**С АМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК**

**2**

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 460 nusxada chop etildi. Buyurtma 549. Hajmi 2 bosma taqob, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

**3**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

**4**

**Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.**

**Navbatchi: D.TO'XTAYEV.**

**Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.**

ISSN-201667X

9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda